

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK - IQTISODIYOT INSTITUTI  
ENERGETIKA FAKULTETI

Ro'yxatga olindi:  
№ 57

2022yil 29 08



**"ISSIQLIK TA'MINOTI VA ISSIQLIK TIZIMLARI"**

fanining

**ISHCHI O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 300000 – Ishlab chiqarish texnik soha.

Ta'lif sohasi: 310000 – Muhandislik ishi.

Ta'lif yo'naliш: 5310100 – Energetika (issiqlik energetikasi).

Qarshi – 2022 yil

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar: S.M.Shamuratova -

QMII "Issiqlik energetikasi"  
kafedrasi assistant o'qituvchisi  
QMII "Issiqlik energetikasi"  
kafedrasi assistant o'qituvchisi

S.Yu.Chorieva -

*Taqrizchilar:*

M.Jonqobilov - Viloyat issiqlik manbai direktori

Sh.Y. Samatova - QarMII "Issiqlik energetikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

Fanning ishchi o'quv dasturi 21 kafedrasi yig'ilishida  
(bayon №1, 21 2022y.), 22.06 fakulteti Uslubiy Komissiyasida  
(bayon №1, 11 2022y.) va institut Uslubiy Kengashida (bayon №11).  
25.06 2022y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya  
qilingan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

Sh.Turdiyev

Fakultet kengashi raisi

A.S.Dusyarov

Kafedra mudiri

T.A.Fayziyev

## Mundarija:

bet

### Kirish

#### I.Fanning maqsadi, vazifalari va tarkibli qismlari.

1.1. Fanning asosiy maqsadi va vazifalari.....	4
1.2. Fan bo'yicha talabalarning tasavvur, bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar .....	4
1.3. Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyiligi .....	5
1.4. Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni.....	5
1.5. Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar.....	5

#### II. O'quv materiallarining tarkibi

2.1. Fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tarkibi va ular uchun ajratilgan vaqt.....	6
2.2. Amaliy mashg'ulotlari.....	12
2.3. Tajriba mashg'ulotlari .....	14
2.4. Kurs ishi (loyihasi) bo'yicha ko'rsatmalar va tavsiyalar.....	15
2.5. Mustaqil ish va topshiriqlarning mavzulari.....	15

#### III."Issiqlik ta'minoti va issiqlik tizimlari" fanidan reyting ballar hisobi jadvali.....

IV. Informatsion uslubiy ta'minot.....	16
--	----

## Kirish

Respublikamizning katta va kichik shaxarlarida, tumanlarda, shirkat xo'jaliklarida zamonani talabasiga asosan, keng ravishda markazlashtirilgan issiqlik ta'minot tizimlari qo'llanilmoqda. Ushbu tizimlarni qo'llanilishi yoqilg'i va energiyalarni tejash, atrof - muxitni ifloslanishidan saqlash, ishlab chiqarish jarayonlarning texnikaviy sifatini oshirish masalalarini yechilishiga keltiradi. Energiya ishlab chiqaruvchi jarayoni, jamoa, sanoat va uy - joy binolarini isitish, ventilyasiyalash, xavoni maromlash tizimi, issiqsuv ta'minoti tizimlari issiqlik energiyani talab etadilar.

Issiqlik ta'minotining vazifasi: issiqlik energiyani ishlab chiqarish, iste'molchilarga yetkazib, taqsimlab berish va ushbu energiyani tejamli iste'mollashiga sharoit yaratishdir. Issiqlik ta'minoti insonlarning ish faoliyatiga va turli xayot faktorlariga ta'sir etadi.

Insonning xayoti va ish faoliyatları ko'pincha binolarda o'tgani tufayli, bino ichidagi xavoning tibbiy ko'rsatkichlarini ruxsat etilgan qiymatlarida saqlanilishini issiqlik ta'minot tizimlari yaratadi.

Asbobsozlik, kimyo sanoati, to'qimachilik va boshqa soxalarning texnologik jarayonlarida bino ichidagi xavoning ko'rsatkichlari ma'lum bir miqdoridan o'zgarmas bo'lib, saqlash uchun issiqlik ta'minot tizimlari xizmat qiladi.

### 1. Fanning maqsadi, vazifalari va tarkibiy qismlari

#### 1.1. Fanning asosiy maqsadi va vazifalari.

"Issiqlik ta'minoti va issiqlik tizimlari" fanini o'rganishdan maqsad bakalavr tizimi bo'yicha ta'lim olovchilarda quyidagi faoliyat soxalari bo'yicha zarur va yetarli bo'lgan shakllantirish hisoblanadi.

Istemolchilarning issiqlik istemoli borasidagi faoliyati va uning xalq xo'jaligida tutgan o'rni;

Issiqlik ta'minoti asoslari;

Issiqlik ta'minoti tizimlarining turlari, ularni xisoblash;

Havoni maromlash asoslari;

Issiqlik ta'minoti va issiqlik tarmoqlari tizimlarini ishlatish va ulardan foydaianish bilimlariga ega bo'lish.

Xalq xo'jaligidagi xamda sanoatning turli tarmoqlaridagi issiqlik ta'minoti va issiqlik tarmoqlari borasidagi mavjud usullar va ularning afzalliklari hamda kamchiliklarini aniqlash, texnik - iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirish masalalari bo'yicha tushunchalar hosil qilish fanning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

#### 1.2. Fan bo'yicha talabalarning tasavvur, bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

"Issiqlik ta'minoti va issiqlik tizimlari" fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr:

- yuqori haroratlari texnologik qurilmalarning turlari, ishlash prinsiplari, hisoblash metodikasi, qurilmalar va yordamchi uskunalarini to'g'ri tanlashni;
- issiqlik ta'minoti tizimlarini, tuzilishi va ishlash prinsiplari;
- Issiqlikta'minoti qurilmalarni iqtisodiy va texnik talablar asosida to'g'ri qo'llash haqidagi tasavvurga ega bo'lishi;

- issiqlik tarmoqlarining tasnifi va ularning ishlash xarakteristikasi;

- issiqlik ta'minoti tizimlarining issiqlik va material balansi;

Ushbu vazifalardan kelib chiqib "Issiqlik ta'minoti va issiqlik tizimlari" fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- o'zining bo'lajak kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyati;
- fanning asosiy muammolari;
- issiqlik tarmoqlaridagi jarayonlarni taxlil qilish yo'llari;
- fan, texnika va texnologiyala yutuqlarida issiqlik energiyasidan oqillona foydalanish;
- issiqlik ta'minoti qurilmalari va issiqlik tarmoqlari hamda zamонавиј issiqlik jihozlari bo'yicha foydalanish ko'nikmasi va tajribasiga ega bo'lish kerak.

Qo'yilgan vazifalar o'qish jarayonida talabalarning ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarida faol ishtirok etishi, adabiyotlar bilan mustaqil ishlashi va o'qituvchi kuzatuvida mustaqil ta'lim olishu bilan amalga oshadi.

### **1.3. Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi**

"Issiqlik ta'minoti va issiqlik tizimlari" fani mutaxassislik fanlar majmuasiga taalluqli bo'lib, talabalar uni 7, 8 semestrlarda o'qitiladi.

Ushbu fanni o'rganishda umumilmiy va umumixtisoslik fanlari asos bo'lib xizmat qiladi.

Dasturni amalga oshirish bakalavriaturaning 5310100 – Energetika (issiqlik energetikasi) ta'lim yo'nalishida o'qish jarayonida ushbu o'quv fani bo'yicha o'zlashtirilgan ma'lumotlarga, hamda o'quv rejasida rejalashtirilgan matematik va tabiiy (kimyo, fizika) va umumkasbiy (issiqlik texnikasi nazariy asoslari) fanlarni bilishga asoslanadi.

Ushbu dastur "Issiqlik energetikasi" yo'nalishining o'quv rejasidagi barcha fanlar bilan uzviy bog'langan. Xususan, ushbu fan "Gidrogazodinamika", "Issiqlik texnikasi", "Issiqlik yuritkichlari", "Qozon qurilmalari" kabi fanlar bo'yicha olingan bilimlarga asoslanadi.

### **1.4. Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni**

"Issiqlik ta'minoti va issiqlik tizimlari" fani energetika va ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog'langan.

Bunda sanoat korxonalarida mavjud issiqlik ta'minoti va issiqlik tizimlari texnologik qurilmalarni iqtisodiy va texnik talablar asosida to'g'ri qo'llash, bu bilan bog'lik barcha hisob ishlarini bajarish, issiqlik ta'minoti qurilmalarining issiqlik va material balansi, issiklik almashinuv jarayonini bilishlari, ishlab chiqarish jarayonlarini berilgan ob'ektning xususiyatlardan kelib chiqqan holda issiqlik ta'minoti va issiqlik tizimlarining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichini oshirish usullari xossalardan foydalanimontaj va loyixalash ishlarini bajariladi.

### **1.5. Fanni o'qitishda zamонавиј axborot va pedagogik texnologiyalar**

Fanni o'qitishda innovasion pedagogik texnologiyalar, jumladan quyidagi interaktiv uslublardan, jumladan muhokama-munozara, jamoaviy muhokama yoki muammolar ruyxatini tuzish, vaziyatni o'rganish, tahlil qilish, babs yoki munozaralar olib borish, tanqidiy fikrlash, rolli o'yinlar, kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, klaster (tutam, bog'lam), baliq skeleti, ajurli arra, FSMU, bumerang, skarabey, kaskad, Veyer, pinbord, "T-sxema", delfi, blis-so'rov, "Nima uchun?" texnologiyalari, ma'ruza-anjuman texnikasi, BBXB (Bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim), konseptual va insert jadvallaridan keng foydalaniadi.

Fan bo'yicha ma'ruza matnlarini tayyorlashda chet mamlakatlar, jumladan Hamdustlik mamlakatlarida yangi chop etilib. "Internet" tizimi orqali tarqatilgan elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalar va ma'ruza matnlaridan foydalaniadi. Shuningdek, ma'ruzalarni o'tishda elektron ma'ruzalardan, mavzularga mos multimediali slaydlar va videosfilmlardan foydalanish ko'zda tutiladi.

Amaliy mashg'ulotlarda elektron mashqlar va masalalar to'plamlaridan, kompyuterlar yordamida fan buyicha kompyuter o'yinlari, test savol-javoblari, laboratoriya mashg'ulotlarda esa qurilmalar va jihozlarning hamda texnologik jarayon kechishining kompyuterdag'i elektron modellaridan, virtual laboratoriyalardan foydalaniadi.

**Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.** Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'lqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyatini bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondoshuv.** Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilari o'zida mujassam etmog'i lozim jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

**Dialogik yondashuv.** Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyatni kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.** Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarini baholashda birqalikda ishiashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta'lim.** Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minladi.

**Axborotni taqdim qilishning zamonaliviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.**

**O'qitishning usullari va texnikasi.** Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlari.

**O'qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rjanishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

**O'qitish vositalari:** o'qitishning an'anaviy shakllari (garslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalarini.

**Kommunikasiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blis-so'rov, oraliq va joriy, yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birqalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baholash:** o'quv mashg'ulotida ham, butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yezma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

#### **"Issiqlik ta'minoti va issiqlik tizimlari" fanidan mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:**

Umumi o'quv soati	274 soat
Shu jumladan:	
Ma'ruza	72 soat
Amaliy mashg'ulotlar	60 soat
Laboratoriya	12 soat
Mustaqil ta'lim	130 soat

№	Mavzu, bo'lim nomi	Ma'niza	Tajriba mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	Mustaqil ish
1	2	4	5	6	7
<b>Umumiy xulosa va tushunchalar.</b>					
1	Kirish. Issiqlik ta'minoti tizimining asosiy elementlari.	2			
2	Suvli tizimlarning tuzilishi va tashkil etish prinsiplari.	2		2	
3	Issiqlik ta'minotida rostlash.	2		2	
4	Issiqlik ist'emolchilarinining tasniflanishi va issiqlik sarfini aniqlash usullari.	2		2	
5	Issiqlik ist'emolining soatboy va yillik grafigi.	2		2	
6	Elevatorli ulanma.	2			
7	Issiq suv sifatiga qo'yiladigan asosiy talablar issiq suv ta'minoti tizimlari.	2			
8	Mahalliy issiq suv ta'minoti tizimlarini hisoblash.	2			
9	Rostlash maqsadi va turlari.	2		2	
10	Isitish yuklamasi bo'yicha yopiq tizimlarni markaziy rostlash.	2		2	
11	Issiqlik va issiq suv ta'minotining umumiy yuklamasi bo'yicha yopiq tizimlarni markaziy rostlash.	2		2	
12	Issiqlik punktlari.	2		2	
13	Issiqlik tarmoqlari sxemalari va tuzilishi.	2			
14	Quvurni hisoblash uslubi.	2			
15	Pezometrik grafikni qurish.	2			
16	Gidravlik rejim asoslari.	2			
17	Quvurlar va armatura.	2			
18	Ochib yopish armaturasi.	2			
<b>VIII – semester</b>					
19	Quvurlar tizimini konstruktsiyalash.	2			
20	Yer osti issiqlik o'tkazgichlar.	2		2	
21	Issiqlik izolyatsiyasi.	2		2	
22	Issiqlik izolyatsiyasi konstruktsiyalari.				
23	Sirtning haroratiga mos ravishda izolyatsiyasini hisoblash.	2		2	
24	Issiqlik tarmoqlarini sinash.	2			
25	Isitish.	2			
26	Zamonaviy isitish tizimlari. Isitish tizimlarning kamchiligi.				

27	Ko'p qavatli osmono'par binolarni isitish mohiyati. Sanoat binolarni isitish tizimlari.	2			
28	Ventilyatsiya.	2			
29	Ventilyatsiya tizimlarning tasnifi.	2			
30	Binolar ventilyatsiya tizimlarining tuzilishi.	2			
31	Havoni konditsiyalash.	2		2	
32	Havoni konditsiyalash tizimlarning tasnifi va tuzilishi.	2			
33	Havoni konditsiyalash tizimlarning asosiy jihozlari.	2			
34	Havoni konditsiyalash tizimlarning hisobi.	2			
35	Isitish va sovutish jarayonlari.	2			
36	Havoni konditsiyalash tizimlarini sovuqlik bilan ta'minlash manbalari.	2			
<b>Jami:</b>		<b>72</b>	<b>12</b>	<b>30</b>	<b>130</b>

## ASOSIY QISM

### Ma'ruza mashg'ulotlari

**1 – ma'ruza. Kirish. Issiqlik ta'minoti tiziminining asosiy elementlari.**

Issiqlik ta'minoti tiziminining asosiy elementlari: issiqlik manbalari, issiqlik tarmoqlari, abonent kirishlari, mahalliy issiqlik ist'emolchilar tizimlari, yopiq va ochiq tizimlar. Suvli va bug'li issiqlik ta'minoti tizimlari.

*Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lism. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2

**2 – ma'ruza. Suvli tizimlarning tuzilishi va tashkil etish prinsiplari.**

Suvli issiqlik ta'minoti tizimlarning issiqlik tarmoqlarga mahalliy issiqlik ist'emolchilarini ulash, bir qurvurli, ikki qurvurli, uch qurvurli to'rt qurvurli, kombinirlangan tizimlar.

*Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lism. Aqliy hujum, blis, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2

**3-ma'ruza. Issiqlik ta'minotida rostlash.**

Issiqlik suv ta'minotida issiqlik berishining bog'lanishli va bog'lanishsiz rostlash, normal va bog'lanishli ta'minot. Parallel va aralash ta'minot sxemalari.

*Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lism. Aqliy hujum, blis, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2

**4 – ma'ruza. Issiqlik ist'emolchilariniining tasniflanishi va issiqlik sarfini aniqlash usullari.**

Issiqlik ist'emolchilarining tasniflanishi va issiqlik sarfini aniqlash usullari. Issiqlik ist'emoliga qarab yashash va ijtimoiy binolarga issiqlik sarfini aniqlash.

*Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lism. Aqliy hujum, blis, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2

**5 – ma'ruza. Issiqlik ist'emolining soatboy va yillik grafigi.**

Yil davomidagi issiqlik yuklamasini hisoblash. Issiqlik yuklamasining yillik grafigi.

*Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lism. Aqliy hujum, blis, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2

**6 - ma'ruza. Elevatorli ulanma.**

Issiqlik almashinuv qurilmalarining konstruktsiyalari. Issiqlik potensialini kamayishi yoki o'zgarmasligi bilan kuzatiladigan issiqlik ist'emoli. Elevator ulanmalarning kamchiliklari.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar: A1, A2, Q3*

**7-ma'ruza. Issiq suv sifatiga qo'yiladigan asosiy talablar issiq suv ta'minoti tizimlari.**

Suvning tayyorlanishi, ist'emolchilarga berilayotgan suvning sifati, issiqlik ta'minoti tizimining sanitariya nazorati, snitariya gigiena meyorlari, issiq suv ta'minotining sanitariya jihozlari.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, blis-so'rov, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar: A1, A2, Q4, Q5*

**8-ma'ruza. Mahalliy issiq suv ta'minoti tizimlarini hisoblash.**

Korroziya va nakip xosil bo'lishi. Issiq suv ta'minoti tizimlarida energiya tejamkorligi. Issiq suv akkumulyatorlari.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, ajurali arra, baliq skeleti, munozara.*

*Adabiyotlar: A1, A2, Q6*

**9- ma'ruza. Rostlash maqsadi va turlari.**

Rostlashning umumiylenglamasi. Issiqlik almashgichlarning issiqlik ko'rsatkichlari. Bir hilli issiqlik yuklamsini markazlashtirib rostlash.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, ajurali arra, baliq skeleti, munozara.*

*Adabiyotlar: A1, A2, Q6*

**10- ma'ruza. Isitish yuklamasi bo'yicha yopiq tizimlarni markaziy rostlash.**

Isitishning haroratlar grafigi. Ventilyatsiyaga haroratlar va issiqlik sarfining grafiklari. Issiq suv ta'minotiga haroratlar, issiqlik va tarmoq suv sarfining grafiklari.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, blis, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar: A1, A2, Q7*

**11-ma'ruza. Issiqlik va issiq suv ta'minotining umumiylenglama bo'yicha yopiq tizimlarni markaziy rostlash.**

Qo'shma yuklama bo'yicha markazlashtirilgan sifatli rostlash. Aralash yuklamada miqdoriy va sifatli rostlash. Suv umumiylenglama grafigi.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, blis, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar: A1, A2, Q7*

**12-ma'ruza. Issiqlik punktlari..**

Issiqlik punktlari jihozlari. Issiqlik punktlarni avtomatlashtirish. Suv sarfini rostlash. Qaytish quvurlarida suv sarfini rostlash.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar: A1, A2, Q9*

**13 - ma'ruza. Issiqlik tarmoqlari sxemalari va tuzilishi.**

Issiqlik tarmoqlari sxemalari va tuzilishi. Ochiq va yopiq sxemalari va ularning turlari. Issiqlik tarmog'ining gidravlik hisobi.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar: A1, A2, Q9*

**14-ma'ruza. Quvurni hisoblash uslubi.**

Issiqlik tarmoqlarni hisoblash tartiboti. Texnologik quvurlar, ulanmalar, yunalish o'zgartirigichlar, torayishlar, shartli bosim, ishchi bosim.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar: A1, A2, Q10*

**15-ma'ruza. Pezometrik grafikni qurish.**

Issiqlik tarmoqlarni loyihalash, ularni ishlatalishda pezometrik grafigidan foydalanish, bu grafikda binolarni joylashishi, tarmoqning har bir nuqtasidagi siquvning qiymati aniqlash muommalari yoritilgan. Pezometrik grafik qurilganda bajarilishi lozim bo'lgan shartlar to'risida ma'lumotlar keltirilgan.

*Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2, Q10

**16-ma'ruza. Issiqlik tarmoqlarining gidravlik rejim asoslari.**

Gidravlik rejim hisobi. Gidravlik turg'unlik. Issiqlik tarmoqlarda bosimni rostlash. Issiq suv ta'minining issiqlik ta'minoti tizimining gidravlik rejimiga ta'siri.

*Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2, Q10

**17 – ma'ruza. Quvurlar va armatura.**

Mahalliy ist'emolchilar va ularni ulash tug'unlarning jihozlari, issiq suv ta'minoti, issiqlik tarmoqlarni ishga tushirish, sozlash, sinash va ulardan foydalanish masalalari yoritilgan.

*Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2, Q10

**18 – ma'ruza. Ochib yopish armaturasi.**

Tayanchilar, kompensatorlar. Kompensatori qo'llash va hisoblash. Mahalliy ist'emolchilar va ularni ulash tug'unlarning jihozlari.

*Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2, Q11

**19 – ma'ruza. Quvurlar tizimini konstruktsiyalash.**

Mahalliy ist'emolchilar va ularni ulash tug'unlarning jihozlari.

**20 – ma'ruza. Yer osti issiqlik o'tkazgichlar.**

Yopiq kanallar. Kanalsiz o'tkazish. Yer usti issiqlik quvurlari. Quvurlarni turli kommuniksiyalarni kesib o'tishi. Issiqlik tarmog'ining trassasi va profili.

*Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2, Q11

**21-ma'ruza. Issiqlik izolyatsiyasi.**

Issiqliknin izolyatsiya qilish xossalarni aniqlovchi asosiy hisobi bog'liklar. Quvurlar va jihozlarning issiqlik izolyatsiya hisobi. Izolyatsiya qalinligini hisoblash usuli.

*Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2, Q11

**22-ma'ruza. Issiqlik izolyatsiyasi konstruktsiyalari.**

Issiqliknin izolyatsiya qilish xossalarni aniqlovchi asosiy hisobi bog'liklar. Quvurlar va jihozlarning issiqlik izolyatsiya hisobi. Izolyatsiya qalinligini hisoblash usuli.

*Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2, Q11

**23-ma'ruza. Sirtning haroratiga mos ravishda izolyatsiyasini hisoblash.**

Kanalsiz yer osti yotqizishlari, issiqlik tarmoqlarni qabul qilish, ishga tushirish va rostlash.

*Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2, Q11

**24-ma'ruza. Issiqlik tarmoqlarini sinash.**

Tamirlash va dispetcherlik hizmati, tamirlash ishlarni olib borish tartibi, ma'sullar, dispetcherlar vazifasi, axborot tizimi. Dastlabki va yakuniy sinov, issiqlik ta'minoti tizimlarni sozlash.

issiqlik tarmoqlarning sinovlari..

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2, Q11

**25- ma'ruza. Isitish**

Umumiy ma'lumot. Isitish tizimlarga quyiladigan talablar. Isitish tizimlarda ishlataladigan issiqlik tashuvchilari va ularning xossalari.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2, Q11

**26-ma'ruza. Zamonaviy isitish tizimlari.**

Hozirgi davrda qo'llanadigan zamonaviy isitish tizimlari va ularning kamchiliklari. Kamchiliklami kamaytirish maqsadda tavsiya etiladigan choralar.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2, Q11

**27-ma'ruza. Ko'p qavatli osmon o'par binolarini isitish tizimlari va sanoat binolarini isitish tizimlari.**

Ko'p qavatli osmon o'par binolarni isitish tizimlarning xususiyati va sxemalari. Sanoat binolarini isitish tizimlarning xususiyati va sxemalari.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2, Q11

**28-ma'ruza Ventilyatsiya.**

Umumiy ma'lumot. Havo almashinuvini tashkil etish chizmalari. Erkin havo oqimlarining ayerodinamikasi. Havo taqsimlagichlari va ularni hisobi.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2, Q11

**29- ma'ruza. Ventilyatsiya tizimlarining tasnifi.**

Umumiy ma'lumot. Ventilyatsiya tizimlarining tasnifi, asosiy elementlari va ularni tanlash. Ventilyatorlar.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2, Q11

**30-ma'ruza. Ventilyatsiya tizimlarining tuzilishi.**

Ventilatsion qurilmalarning tebranish izolatsiyasi. Ventilyatsiya tizimlarida shovqinga qarshi kurash. Fiziologiya ko'rsatkichlari. Ventilyatsiya tizimlarini ishga tushirish va foydalanish.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2, Q13, Q14.

**31-ma'ruza. Havoni konditsiyalash.**

Nam havo termodinamikasi. Nam havoning 1-d – diagrammasi. Havoning asosiy parametrlar hisobi.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2, Q13, Q14.

**32- ma'ruza. Havoni konditsiyalash tizimlarning tasnifi va tuzilishi.**

Havoni konditsiyalash tizimlarning tasnifi va tuzilishi to'g'risida ma'lumot.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2, Q11

**33- ma'ruza. Havoni konditsiyalash tizimlarning asosiy jihozlari.**

Havoni konditsiyalash tizimlaridagi asosiy jihozlari haqida umumiy ma'lumotlar va

qurulmalarning qamrovi.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2, Q11

**34- ma'ruza. Isitish va sovutish jarayonlari.**

Isitish va sovutish jarayonlari to'g'risida umumiylar ma'lumot.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2, Q11

**35- ma'ruza. Havoni konditsiyalash tizimlarini sovuqlik bilan ta'minlash manbalari.**

Umumiylar ma'lumot. Havoni konditsiyalash tizimlarining principial chizmalari. Mahalliy markaziylar HKT lar.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2, Q8, Q9

**36- ma'ruza. Havoni konditsiyalash tizimlarini sovuqlik bilan ta'minlash manbalari.**

Umumiylar ma'lumot. Havoni konditsiyalash tizimlarining principial chizmalari. Mahalliy markaziylar HKT lar.

*Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, blis, ajurali arra, baliq skeleti, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

*Adabiyotlar:* A1, A2, Q8, Q9

**"Issiqlik ta'minoti va issiqlik tizimlari" fani bo'yicha  
amaliyot mashg'ulotlarining kalendari rejasি**

T/r	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	soat
1.	Korxonalar issiqlik ta'minotida issiqlik sarfini hisoblash.	2 2
2.	Binolarni isitishga issiqliknинг hisobiy sarfini aniqlash.	2 2
3.	Binolarni isitishga va ventilyatsiyasiga issiqliknинг hisobiy sarfnini aniqlash.	2 2
4.	Issiq suv ta'minoti uchun issiqliknинг o'rtacha sarfi.	2 2
5.	Isitish va texnologik extiyojlar uchun issiqliknинг umumiylar hisobiy sarfnini aniqlash.	2 2
6.	Issiqliknинг umumiylar hisobi.	2 2
<b>VIII - semestr</b>		
7.	Issiqlik ta'minoti tizimining texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari.	2 2
8.	Issiqlik tashuvchilar miqdorini aniqlash.	2 2
9.	Gaz simon yoqilg'ida ishlaydigan kozonxonada ishlab chiqarilgan issiqliknining tannarxini aniqlash.	2 2
10.	Texnologik extiyojlarga sarflanayotgan sovuqlik hisobi.	2 2
11.	Kattalashtirilgan kursatkichlar bo'yicha issiqlik sarfini aniqlash.	2 2
12.	Issiqlik tarmog'ining gidravlik hisobi.	2 2

13.	Issiqlik tarmog'ining issiqlik hisobi.	2
14.	Yer ostida o'tkazilgan issiqlik quvurlarni hisoblash.	2
15.	Yer ustida o'tkazilgan issiqlik quvurlarni hisoblash.	2
16.	Havo qatlamini issiqlik hisobi.	2
17.	Issitish uchun issiqlikning solishtirma sarfi.	2
Jami:		60

## 2.2. Amaliy mashg'ulotlarning tavsiya etiladigan mavzulari

### 1. Korxonalar issiqlik ta'minotida issiqlik sarfini hisoblash.

Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari: *muammoli ta'lism, Blis-so'rov, munozara, BBB,*

*Insert.*

Adabiyotlar: A12, A9, Q23, Q21

### 2. Binolarni isitishga issiqlikning hisobiy sarfini aniqlash.

Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lism. Kichik guruhlarda ishslash, babs- munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A14, A13, A10, Q23, Q24

### 3. Binolarni isitishga va ventilyatsiyasiga issiqlikning hisobiy sarfni aniqlash.

Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lism. Babs- munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A11, A8, Q20

### 4. Issiq suv ta'minoti uchun issiqlikning o'rtacha sarfi.

Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lism. Kichik guruhlarda ishslash, babs- munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A14, A13, A10, Q23, Q24

### 5. Isitish va texnolgik extiyojlar uchun issiqlikning umumiy hisobiy sarfni aniqlash.

Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lism. Kichik guruhlarda ishslash, babs- munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A14, A13, A10, Q23, Q24

### 6. Issiqlikning umumiy sarfi.

Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lism. Kichik guruhlarda ishslash, babs- munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A14, A13, A10, Q23, Q24

### 7. Issiqlik ta'minoti tizimining texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lism. Babs- munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A10, A14, Q23, Q20

### 8. Issiqlik tashuvechilar miqdorini aniqlash.

Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari: *muammoli ta'lism, Blis-so'rov, munozara, BBB,*

*Insert.*

Adabiyotlar: A12, A9, Q23, Q21

### 9. Gaz simon yoqilg'ida ishlaydigan kozonxonada ishlab chiqarilgan issiqlikning tannarxini aniqlash.

Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lism. Kichik guruhlarda ishslash, babs- munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A14, A13, A10, Q23, Q24

### 10. Texnologik extiyojlarga sarflanayotgan sovuqlik hisobi.

Qo'llaniladigan ta'lism texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lism. Babs- munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A11, A8, Q20

**11. Kattalashtirilgan kursatkichlar bo'yicha issiqlik sarfini aniqlash.**

Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif. Kichik guruhlarda ishlash, babs-munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A14, A13, A10, Q23, Q24

**12. Issiqlik tarmog'ining gidravlik hisobi.**

Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif. Kichik guruhlarda ishlash, babs-munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A14, A13, A10, Q23, Q24

**13. Issiqlik tarmog'ining issiqlik hisobi.**

Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif. Babs-munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A10, A14, Q23, Q20

**14. Yer ostida o'tkazilgan issiqlik quvurlarni hisoblash.**

Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: *muammoli ta'lif. Blis-so'rov, munozara.*

Adabiyotlar: A12, A9, Q23, Q21

**15. Yer ustida o'tkazilgan issiqlik quvurlarni hisoblash.**

Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif. Kichik guruhlarda ishlash, babs-munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A14, A13, A10, Q23, Q24

**16. Havo qatlamini issiqlik hisobi.**

Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif. Kichik guruhlarda ishlash, babs-munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A14, A13, A10, Q23, Q24

**17. Issitish uchun issiqliknинг solishtirma sarfi.**

Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: *muammoli ta'lif. Blis-so'rov, munozara.*

Adabiyotlar: A12, A9, Q23, Q26

**"Issiqlik ta'minoti va issiqlik tizimlari" fani bo'yicha  
laboratoriya ishlarining kalendar rejasি**

T/r	Laboratoriya ishlarining mavzulari	Soat
1.	Issiqlik ta'minotida oqimchaviy nasoslar (elevator)ning aralashma koeffisienti va FIK ini aniqlash.	2
2.	Issiq suv ta'minoti tizimlaridagi suv-suvli qizdirgichni qizish yuzasini aniqlash.	2
3.	Issiqlik suv ta'minoti tizim quvurlaridagi issiqlik yoqotilishlarni aniqlash.	2
4.	Ikki quvurli yopiq issiqlik ta'minoti tizimida bosimning pezometrik grafigini qurish.	2
5.	Ikki quvurli ochiq issiqlik ta'minoti tizimida bosimning pezometrik grafigini qurish.	2
	<b>Jami</b>	<b>12</b>

**2.3. Laboratoriya mashg'ulotlarning tavsiya etiladigan mavzulari**

**1. Issiqlik ta'minotida oqimchaviy nasoslar (elevator)ning aralashma koeffisienti va FIK ini aniqlash.**

Qo'llaniladigan texnik vositalar va ishni bajarish usuli: *laboratoriya stendi yordamida.*

Adabiyotlar: A11, A13, Q22, Q20

**2. Issiqlik ta'minoti tizimlaridagi suv-suvli qizdirgichni qizish yuzasini aniqlash.**

Qo'llaniladigan texnik vositalar va ishni bajarish usuli: *Kompyuter, virtual laboratoriya yordamida*.

Adabiyotlar: A15, A13, Q23, Q20, Q21

**3. Issiqlik suv ta'minoti tizim quvurlaridagi issiqlik yoqotilishlarni aniqlash.**

Qo'llaniladigan texnik vositalar va ishni bajarish usuli: *laboratoriya stendi yordamida*.

Adabiyotlar: A14, A16, A21, Q20,

**4. Ikki quvurli yopiq issiqlik ta'minoti tizimida bosimning pezometrik grafigini qurish.**

Qo'llaniladigan texnik vositalar va ishni bajarish usuli: *laboratoriya stendi yordamida*.

Adabiyotlar: A15, A13, Q20, Q23

**5. Ikki quvurli ochiq issiqlik ta'minoti tizimida bosimning pezometrik grafigini qurish.**

Qo'llaniladigan texnik vositalar va ishni bajarish usuli: *laboratoriya stendi yordamida*.

Adabiyotlar: A18, A13, Q21, Q23, Q21

## **2.4. Kurs ishi (loyihasi) bo'yicha ko'rsatmalar va tavsiyalar**

Kurs ishining maqsadi talabalarni mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan nazariy bilimlarini qo'llashda amaliy ko'nikmalar hosil qilish va zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishdir.

Kurs ishini bajarishda bakalavr issiqlik va elektr markazidan shaharni isitish, ventilyatsiya va issiqlik suv ta'minoti uchun beriladigan issiqlik sarfini, ikki quvurli isitish suv tarmog'ini quvurlar diametri va uning ayrim qismlarida siquvning yo'qotilishini, bug' tarmog'i quvurlarining diametrlarini va iste'molchilar oldidagi bug'ning haqiqiy bosimini, issiqlik tarmog'ining iste'molchilaridan biriga berilayotgan issiqliknini aniqlash va o'quv adabiyotlaridagi jadvallardan foydalanishni o'rganishi kerak.

Kurs ishi uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

Issiqlik ta'minoti tizimining issiqlik va gidravlik hisobi (variantlar bo'yicha)

Kurs ishi mavzulari umumiy talabalar sonidan 20-30% ko'proq oldindan tayyorlanadi. Har bir talabaga alohida variant beriladi va quyidagi hisoblash ishlari bajariladi:

1. Issiqlik va elektr markazidan shahar nohiyasiga isitish, ventilyatsiya va issiqlik suv ta'minoti uchun beriladigan issiqlik sarfi;

2. Ikki quvurli isitish tarmog'ining quvurlar diametri va uning ayrim qismlarida siquvning yo'qotilishini aniqlash;

3. Bug' tarmog'i quvurining diametrlarini va iste'molchilar oldidagi bug'ning haqiqiy bosimini aniqlash;

4. Issiqlik tarmog'ining iste'molchilaridan biriga berilayotgan issiqliknini aniqlash.

## **2.5. Mustaqil ta'limga va mustaqil ishlarga**

**Mustaqil ta'limga maqsadi** - talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini darsliklar, o'kuv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmualar, internet ma'lumotlari, o'quv-vizual va multimedia materiallari yordamida mustahkamlaydilar.

1. Issiqlik elektr markazlari foydali ish koeffitsientini hisoblash usullari bilan tanishish. Issiqlik maskanlarida bug' - gaz qurulmasi va gaz turbinasi qurulmalaridan foydalanishimkoniyatlari haqida.

2. Atom elektr stantsiyalaridan issiqlik ta'minoti uchun foydalanish imkoniyatlari.

3. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda issiqlik ta'minoti tizimlaridan foydalanish ahvoli haqida.

4. Rostlash tizimlarida zamonaviy asbob – uskunalardan foydalanish haqida.

5. Havoni maromlashning zamonaviy uskunalari haqida.

### III. Fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish

Talabalar bilimini nazorat qilish Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan tavsiya etilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi N i z o m ( Nizom O'z.R. OO'MTVning 2009 yil 11 iyundagi 204-sodn buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 10 iyulda 1981-sodn bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. O'z.R. OO'MTVning 2010 yil 25 avgustdag'i 333-sonli buyrug'i bilan Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 26 avgustda 1981-1-sodn bilan davlat ro'yxatidan qayta o'tkazilgan.) asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomga muvofiq fan bo'yicha o'quv semestri davomida uch turdag'i, ya'ni joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

**Joriy nazorat** - fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim topshiriqlari buyicha, og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.

**Oraliq nazorat** – semestr davomida modulli tizim asosida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin, talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida yozma, og'zaki, test shaklida o'tkaziladi. Oraliq nazorat bir semestrda ikki (yoki bir) marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) hamda soni o'quv faniga ajratilgan umumiyoq soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

**Yakuniy nazorat** – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi. Ilmiy Kengash qarori bilan yakuniy nazorat og'zaki, test va boshqa shakllarda ham o'tkazilishi mumkin.

### IV. Dasturning informasion- uslubiy ta'minoti.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida O'zbekiston Respublikasining mehnatni muhofaza qilish, FV, Ekolgiyaga oid qonunlari, kodekslar, Prezident Qarorlari va Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, chet el va Respublikamizda nashr etilgan adabiyotlar, elektorn adabiyotlar, virtual laboratoriylar, laboratoriya mavzusiga oid texnik jihozlar, turli slaydlar, vikipedia yoki jurnallardagi maqolalar, ma'ruza matnlari, fan bo'yicha o'quv-uslubiy majmular hamda Internet materiallaridan foydalaniлади

#### O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Sh.M.Mirziyoev. 2017-2021 yillarda O'zRni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. Prezident Farmoishi. T.15.08.2017y
2. Sh. Mirziyoev. Islom hamkorlik tashkilotining fan va texnologiyalar bo'yicha birinchi sammitidagi nutqi. Xalq so'zi. 11.09.2017y.
3. Sh. Mirziyoev. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohatlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. Prezident farmoni. Xalq so'zi. 09.09.2017y.

### **Asosiy adabiyotlar**

- 4.B.X. Yunusov, M.M.Azimova "Issiqlik ta'minoti va issiqlik tarmoqlari" Toshkent, "Voris-nashriyoti", 2014, 168 bet.
5. A.U. Alimboev. Issiqlik ta'minoti va issiqlik tarmoqlari. O'quv qo'llanma. T., 1997 yil. ToshDTU.
6. Е.Я. Соколов «Теплофикация и тепловые сети» - М.: МЭИ, 2001 г.
7. Расчет систем теплоснабжения и кондиционирования воздуха. Учебное пособие. ТГТУ.
8. Энергосбережение: Теория и практика. Результаты научно-практических исследований. – М., МЭИ.-2002 г.

### **Qo'shimcha adabiyotlar.**

9. Теплосчетчики, счетчики пара, воды, вычислители количества теплоты и теплоносителя для коммерческого учета. Выпуск – 3. М., МЭИ – 2001г.
10. Правила эксплуатации и правила техники безопасности при эксплуатации теплопотребляющих установок и тепловых сетей потребителей. – М., Энергосервис – 2001г.
- 11.Основы инструментального энергоаудита. Учебно-методические материалы. – М., Мосэнергонадзор 1999 г.

### **Elektron resurslar**

Sayt: [www.uzerergy.uzpak.uz](http://www.uzerergy.uzpak.uz);  
Sayt: [www.rosteplo.ru](http://www.rosteplo.ru);  
Sayt: [www.energystrategy.Ru](http://www.energystrategy.Ru).  
Sayt: [www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz).